

Mamajonova Zebo Dadajanovna

TDPU 104-MT talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkiston xalqining atoqli adibi Abdulla Avloniyning qisqacha hayot yo'li va, albatta, farzandlar tarbiyasiga aloqador o'gitlari, hikmatlari keltirilib, mazmunli baytlari orqali ahloq, tarbiya, hulq mavzulari yoritib o'tilgan. Bu maqola orqali yoshlarni yanada ilm olishga undash, tarbiya jihatdan saviyasini yuksaltirishga e'tibor berilgan.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, gumanistik, "Turkiston" teatri, birinchi muallim, handasa.

### ВЛИЯНИЕ ИДЕЙ АЛДУЛЛЫ АВЛОНИ ОБ ОБРАЗОВАНИИ И МОРАЛИ НА МОЛОДОЕ ПОКОЛЕНИЕ.

**Аннотация:** В данной статье представлен короткий жизненный путь Абдуллы Авлони, известного писателя народа Туркестана, и, конечно же, учения и мудрости, связанные с воспитанием детей, и темы нравственности, воспитания и поведения раскрываются через его многозначительные стихи, уделено внимание повышению уровня поощрения и просвещения.

**Ключевые слова:** модернизм, гуманистический «Туркестанский» театр, первый учитель и др.

### THE IMPACT OF ALDULLA AVLONI'S IDEAS ON EDUCATION OR MORALITY ON THE YOUNG GENERATION.

**Annotation:** In this article, the short life path of Abdulla Avloni, the famous writer of the people of Turkestan, and, of course, the teachings and wisdom related to the upbringing of children are presented, and the topics of morality, education and behavior are covered through his meaningful verses. attention has been paid to raising the level of encouragement and education.

**Key words:** modernism, humanistic "Turkestan" theater, first teacher, etc.

Buyuklikka daxldor shaxs, yetuk siymo. Har bir bola esini tanib ilm dargohiga qadam qo'yarkan, albatta, Turkiston xalqining qalb ardogiga aylangan Abdulla Avlonining "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan jumlasini ostida kutib olinadi. Ilm xaqida so'z ochilganda ham yurtboshimiz ushbu dono fikrlarni ta'kidlab o'tadi. Adibning mashaqqatli hayot yo'lini kelajak avlodga o'rnak qilib ko'rsatadi.

Abdulla Avloniy 1878 yilning 12 iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida, to‘quvchi Miravlon aka oilasida dunyoga keldi. Bolaligi Mirobod mahallasining egri-bugri ko‘chalarida, ko‘pchilik qismini ruslar tashkil qilgan temir yo‘l ishchilari bolalari orasida kechdi. Abdulla Avloniy boshlang‘ich diniy maktabda va madrasada o‘qidi, ilm-fanga ixlos qo‘ydi. O‘zbek va boshqa Sharq xalqlari adabiyotini berilib o‘rgandi, 14 yoshidan boshlab o‘q she‘rlar yozishni mashq qila boshladi. Uning bu davrda yozgan

ilk she‘rlari o‘sha davr vaqtli matbuot sahifalarida bosilib turdi. Orenburg, Qozon, Tiflida chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib bordi. Qisqa muddat ichida u ma‘rifatparvar sifatida tanildi va o‘lkadagi ijtimoiy-madaniy harakatchilikning faol namoyandalaridan biriga aylandi. XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayotida yuz bergan eng muhim o‘zgarishlardan biri maktab o‘quv ishlarida o‘zgarish bo‘ldi. Avloniy bu davrda jadidchilik harakatiga qo‘shilib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib tanildi. Avloniy 1904 yilda Mirobodda, so‘ngroq Degrezliqda (1903–14) xuddi shunday yangi usulda, yangicha maktab ochib, dars berdi va darsliklar yozdi. Avloniy maktabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy va ilg‘or ilm-fanni bolalarga o‘rgatishni o‘z oldiga asosiy vazifa qilib qo‘ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo‘lishini ta‘minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo‘ldi. Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzdi. Abdulla Avloniy maktabi har tomonlama bolani o‘ziga tortishi uchun harakat qiladi. Uning qo‘lidan duradgorlik ishlari ham kelar edi. Shuning uchun u yozuv taxtasi, parta yasab, barcha o‘quv jihozlarini o‘zgartirdi. Bu yerda o‘qiydigan bolalarning ko‘pchiligini kambag‘allarning bolalari tashkil etganligi sababli muallim boybadavlat do‘stlarining ko‘magida 1909-yil “Jamiyati xayriya” tashkil etadi. Bu bilan bolalarga bepul kiyim-bosh, oziq-ovqat, daftar, qalam berilishini ta‘minlaydi. Abdulla Avloniy o‘zi tashkil qilgan maktabda bolalar diqqatini asosiy fanlarga jalb etib, ularning tezda savodini chiqarishga va aniq fanlardan bahramand bo‘lishlariga harakat qildi. U bolalarga jug‘rofiya, tarix,

adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlardan ma‘lumotlar berdi.

Avloniy o‘zbek teatrining asoschilaridan edi. U 1913 yilda “Turkiston” teatr truppasini tuzdi. “Turkiston” o‘zining qat’iy nizomini ham e‘lon qilgan edi. Uning tashkilotchisi ham, g‘oyaviy-badiiy rahbari ham Avloniy edi. Truppa “Zaharli hayot” (Hamza), “Baxtsiz kuyov (A. Qodiriy) kabi XX asr boshlari o‘zbek dramaturgiyasining eng yaxshi namunalarini sahnalashtirdi. O‘sha davr xalq pedagogikasida Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” – “Alifbe”, “Ikkinchi muallim” – “O‘qish” kitoblari katta rol o‘ynadi. Bu kitoblarda Avloniy o‘tmish adabiyotimizning eng yaxshi an‘analarini davom ettirdi, ilm va ma‘rifatning ahamiyatini yangichasiga talqin etdi.

“Birinchi muallim”da Avloniy dastavval 32 harfni yolg‘iz yoziladigan shakllarini bir sahifa alifbo tartibida bergan. Shu sahifada alifning so‘zning boshida, o‘rtasida va oxirida yozilishini ko‘rsatgan, so‘ng alifni barcha “bosh harflar”ga qo‘shib, bo‘g‘inlar hosil qilgan.

A.Avloniy «Birinch muallim» asarini Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» hamda Munavvarqori Abdurashidxon o`g`lining «Adibi avval» asarlaridan keyin tilga oladi: «Uchinchi - «Birinch muallim». Bu alifbo 1912-yilda Abdulla Avloniy tomonidan yozilib, Toshkentda «Maktab» kutubxonasi bilan bosildi. Oktabr o`zgarishigacha 4-5 qatla bosilib chiqdi». Muallif alifboni yaratishda bolalarning yosh xususiyatlariga alohida e`tibor berdi, o`qishning eng oson usullarini qo`llashga harakat qildi. Bu

haqda A.Avloniy yozadi: «Muhtaram muallimalarimizdan rijo qilurmanki, bizning «Birinch muallim»imizdan ham olub, tajriba qilub, o`qutub ko`rsalar. Chunki har gulning bir isi, har mevaning ta`m va mazasi bordur. Bu «bo`y» va ta`m esa tajriba sohiblarina kashf va ma`lum o`lur. Shoyad, millat bolalarina foidabaxsh o`lur umidunda bir necha muallimlarimizning iltijolari ila ko`b vaqt tajriba so`ngidan bu risolai ojizanomani «Birinch muallim» ismi-la maydoni intishora qo`ydim. Maorifparvar muallim birodarlarimiz iltifotsiz qoldirmasalar kerak".

«Ikkinchi muallim»da axloq-odobga doir, halollik va poklikka oid turli she`rlar, hikoya, masal va ertaklar jamlangan, rangbarang allegorik qiyofalardan ustalik bilan foydalangan. Avloniy «Ikkinchi muallim» darsligida ushbu ta`sirchan usuldan mohirona foydalangan, ya`ni undagi matnlarning 20 tasi masal janriga mansubdir. Muallif darslikdagi hikoya va masallarning barchasida ikki qarama-qarshi qutb - yaxshilik va yomonlik, ahillik va xudbinlik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi ijobiy va salbiy xususiyatlarni bir-biriga muqoyasa qiladi, xulosa - «qissadan hissa»da esa ularni xolisona baholaydi. «Ikkinchi muallim»da bolalarning saviyasi, yoshlari o`sganligini hisobga olgan: ulardagi she`rlar va nasriy hikoyalar shaklan va mazmunan, ilgari surilgan masalalar ko`lami «Birinch muallim»dagiga nisbatan ancha keng ochib berilgan.

Quyidagi misralar ham shoirni nihoyatda ilmparvar va istedod sohibi ekanligini ochib beradi.

Maktab sizni inson qilur,  
Maktab hayot ehson qilur,  
Maktab g'ami vayron qilur,  
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!  
Maktabdadur ilm-u kamol,  
Maktabdadur husn-u jamol,  
Maktabdadur milliy xayol  
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

Bu she`rda Avloniy maktabni insonning najot yo`li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch deb maqtaydi. Shuning uchun tarbiya maskani ham maktab ekani ta`kidlanadi.

Avloniyning ta`lim-tarbiyaga oid asarlari ichida "Turkiy guliston yoxud axloq" asari katta ahamiyatga molik axloqiy va ta`limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni

yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan qaytaruvchi ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Ushbu asarida Abdulla Avloniy tarbiyada bolalarning fikrini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor bilan qaratadi. Negaki, fikrlash iqtidorini egallash oliyjanob g'oyalar tomon intilish demakdir. Shunday ekan, aqlli odamning axloqsiz bo'lishi qiyin. Avloniy ana shu ikki tushunchalarni

yaqin va birlikda ko'radi. Qalami o'tkir ijodkor she'riy misralarda ham buni e'tirof etadi:

Xulqi yomon yuz, ko'zlidin na sud  
 Yuz, ko'zli xulqni qilmas kashud  
 Xulq mariziga davo istasang,  
 Marg davosin berilur qistasang.  
 Xulqi yomonning keturar ko'p zarar  
 Xulqing o'zi boshingga kaltak urar.  
 Xulqi fano bo'lsa degil alhazar,  
 Xor-u zalilikda qolur darbador.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud ahloq" kitobida bola tarbiyasiga aloqador bo'lgan barcha xislatlarga alohida e'tibor qaratilgan va tavsif berib o'tilgan.

Xususan:

#### AXLOQ

Insonlarni yaxshilikg'a chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmni o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o'zidan

xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O'z aybini bilub, iqror qilub tuzatmakg'a sa'y va ko'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur. Rasuli akram nabiiyyi muhtaram afandimiz: «Mezon tarozusiga qo'yiladurgan amallarning ichida yaxshi xulqdan og'irroqi yo'qdur. Mo'min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro'za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar», – demishlar.

#### XULQ

Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko'z ila bor narsalarni ko'rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi va yo yomon bo'latur. Jasadning surati hammaga ma'lum bir narsadurki, har vaqt ko'zga ko'rinib turatur. Ammo nafsning surati ko'zga ko'rinmaydurgan, aql ila o'lchanadurgan bir narsadurki, buni xulq deb atalur. Agar bir kishi yoshligida nafi buzulub tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, «Allohu akbar» bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur. Rasuli akram nabiiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Bir tog'ning o'rnidan ko'chib ketganini eshitsangiz,

ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo'ldi deb eshitsangiz ishonmangiz», – demishlar.

Abdulla Avloniy tarbiyaning nisbiy ravishta to'rt bo'linga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni
2. Badan tarbiyasi
3. Fikr tarbiyasi
4. Ahloq tarbiyasi.

«Tarbiyaning zamoni» bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi.

Tarbiya xususiy ish emas, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi, adib. Qolaversa, Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ekanini ham ta'kidlaydi: «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur» — deydi.

Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umirining oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan — uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi, u birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilish lozimligini uqtiradi. Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki

o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdur».

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidir.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,

Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkur.

Fikrning oyinasi olursa zang,

Ruhi ravshan zamir o'lur benur.

Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir. Ahloq farzandga tug'ilganidan, oila davrasida qoniga singdiriladi. Kishilar o'rtasida o'zini tutishi, o'zga insonlarga qanday muomila qilish saviyasida namayon bo'ladi.

Shuningdek, Abdulla Avloniy bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib: "Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmak kabidir", ilm haqida esa: " Ilm

dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni,

harakatimizni oyina kabi ko'rsatur" deya ta'kidlaydi.

Yurtimizda jadidchilikka ulkan xissa qo'shgan shunday alloma yashagani ham siz-u bizning baxtimiz. Kelajakka ibrat bo'la oladigan adibimizning qilgan jasoratlari taxsinga sazovordir, har lahza qalbimizda abadiy yashashi ham bundan dalolat. Abdulla Avloniyning tarbiyaviy asarlari xalqimiz tomonidan asrab avaylanadi. Uning hikmatlari farzandlar ongiga hamisha singdirib boriladi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, xalq uchun, yurt uchun yashagan inson aslo kam bo'lmas. Zeroki, biz yoshlar o'qishdan, bilim olishdan va izlanishdan aslo to'xtamasligimiz zarur. Biz buyuklar avlodi ekanligimizni aslo unutmaylik!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ma'naviyat yulduzlari (A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti-Toshkent,1999)kitobi.
2. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud ahloq" -Toshkent,2019 kitobi.
3. Abdulka Avloniy Tanlangan asarlar/2-jild.
4. Ziyouz.com kutubxonasi.